



**“OLYI TA’LIM MAZMUNIGA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”
mavzusida ilmiy-nazariy anjuman
MATERIALLARI**



- pedagogik kadrlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, ayniqsa, metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirish va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash;

- bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlarda faol ishtirokini ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektiga aylantirish orqali kelgusidagi pedagogik faoliyatida innovatsion texnologiyalarning o'rnini anglash, ulardan foydalanish uchun zarur bo'ladigan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga zamin yaratish kabi didaktik maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'z oldiga qo'yidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Ta'lim muassasalari o'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish zaruratini o'rganish.

2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va maqbul texnologiyalarni tanlash.

3. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishning zaruriy shartlarini belgilash.

4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari turlari va shakllarini ta'lim jaryoniga fan xususiyatidan kelib chiqqan holda, qo'llash va foydalanish holatini tahlil qilish.

Ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishning samarali yo'llarini yoritish va tegishli metodik tavsiyalarni ishlab chiqish professor-o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash fanlararo aloqadorlikni amalga oshiradi, ta'lim mazmunini sifat jihatidan to'ldiradi, bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini orttirish barobarida ularning metodik tayyorgarligini zamon talablari darajasida tashkil etishga imkon yaratadi.

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI INNOVATSIYALASH MASALALARI

M.O.Ochilova

BuxDU Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Abdullayeva M.M

Buxoro davlat universiteti talabasi

Pedagogikada innovatsion muammolarni hal etishda o'qituvchining ijodiy faoliyati eng dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Pedagogikaning ijodiy salohiyati uning barkamol shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yishi va ijodkor shaxsni

rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish borasida dars samaradorligini ta'minlash, ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasida" ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" vazifasi belgilanib, bu borada bugungi kunda O'qituvchilar kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirishning mexanizmi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan jarayonlarda muayyan sharoit yaratish uchun loyihalash usulidan foydalanishni talab etiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: a) o'qituvchilarning o'quv kursi doirasida aniq pedagogik loyihalash faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratish; b) O'qituvchilarning o'zlarining dastlabki loyihalash ko'nikmalarini qayd etishlari, loyihalash yakunida esa, o'zgarishlarga sabab bo'lgan holatlarni tahlil etishlarini tashkillashtirish talab qilinadi. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda innovatsion texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy ta'lim dasturlari asosida innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va ta'lim innovatsiyalaridan foydalanilmoqda.

O'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi sharoitlarni yaratish asosida ham samaradorlikka erishish mumkin. Bunda shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi uchun qulay bo'lgan, o'qituvchilarni rivojlantirish va o'z-o'zlarini mustaqil rivojlashtirishga yo'naltirilgan, o'qituvchining shaxsiy qiziqishlarini aniqlashga xizmat qiladigan, o'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish ko'nikmalarini mujassam rivojlantirishga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish va shaxsga

yo'naltirilgan innovatsion modelini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirishlari va foydalanish ko'nikmalarini ta'minlovchi sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar malakasini oshirish tizimining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modelini shakllantirishda tizimli yondashuv prinsipiga tayanish va elementlarning o'zaro aloqadorlik hamda muvofiqlikda rivojlanishini ta'minlash lozim. Bu pedagogik jarayon modeli–dinamik tarkibga ega bo'lib, muayyan aloqalar yordamida jarayonning holatini ochib berishga xizmat qiladi. Oldingi qism keyingi qismning holatini aniqlash imkoniyatiga ega. Jarayon tarkibiy qismlarining bunday izchillikda ifodalanishi o'qituvchilar kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarishiga asos bo'ladi.

O'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini o'zlashtirish jarayonlarini loyihalash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- malaka oshirish tizimining bosqichlari, davrlari yaxlitligi va izchilligi haqida tasavvurga ega bo'lish;

- o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayonlarining darajali xarakter kasb etishini anglash;

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'qituvchilar shaxsiy vazifalarini dolzarblashtirishga qaratilgan o'quv vaziyatlaridan iborat yaxlit jarayon ekanligini chuqur idrok etishga o'qituvchilarni yo'naltirish kabilar.

O'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni samarali o'zlashtirishlari va qo'llashlarini ta'minlashda quyidagi didaktik vaziyatlar ham alohida ahamiyatga ega:

- pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash nuqtai nazaridan yondashgan holda o'z ish tajribasini baholash va mustaqil baholashga yo'naltirilgan vaziyatlar. Bunday vaziyatlar sirasiga asosiy fikrlarni izlashga yo'naltirilgan vaziyatlar, tashxislash vaziyatlari, o'z-o'zini baholash vaziyatlari, ahamiyatli tanlovlar vaziyati, qo'zg'atish vaziyatlari kabilarni kiritish mumkin;

- innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish vaziyatlari. Ular jumlasiga o'qitish, ideallashtirish, muammolar qo'yish, muammolarning yechimiga yo'l topish kabilar kiritiladi;

- o'quv predmetini o'qitish jarayonida o'qituvchining o'zini kasbiy jihatdan namoyon qilish vaziyati. Mazkur vaziyatlar turkumiga o'z-o'zini mustaqil tarzda fikriy ahamiyatlilik jihatdan aniqlash kiritiladi;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatni loyihalash maqsadida o'z innovatsion bilimlarini tatbiq etish vaziyati. Ular jumlasiga faoliyatni loyihalashtirish, evristik jarayonlarni tashkil etish, faoliyatga

moslashish, bashorat qilish, muammoli tahlil va o'z qarashlarini himoya qilishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda shaxsga yo'naltirilgan malaka oshirish jarayonining amalga oshirilishi o'qituvchilarning kasbiy o'z-o'zlarini aniqlashga yo'naltirilgan vaziyatlar orqali ta'minlanadi. Bunday vaziyatlar sirasiga quyidagilar kiradi:

a) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nuqtai nazaridan yondashgan holda shaxsiy pedagogik tajribasini baholash;

b) shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni o'zlashtirish;

v) o'quv predmetidan ta'lim berish jarayonida o'zini kasbiy jihatdan namoyon etish;

g) pedagogik faoliyatni mustaqil loyihalay olish ko'nikmalarini namoyon qilish. Bu jarayonga shaxsga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarori

3. Zaripov K.Z. O'qituvchi faoliyati va shaxsini pedagogik tashxis asosida o'rganish. Xalq ta'limi 2002. 3-son, 83-87 b

4. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari / Xalq ta'limi, 1999 yil, 6-son, 4-9 b.

5. G'anieva M. H. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo'llanma.- T.:2010.

6. Xidoyatova D.A. Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish monografiya- Toshkent, 2014.

8. Ochilova M. O., Ergasheva G. B. Основы организации самостоятельной работы учащихся // Молодой ученый. – 2014. – №. 8. – S. 852-854.

IXTISOSLIK FANLARINI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH Boqiev G'ulomjon Ochilovich

Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyati turli ta'lim shakllari, metodlari va vositalarini maqbul tanlab olish va bir-biriga uyg'un uzviylikda qo'llanilishida yashiringan bo'ladi. Ta'lim samaradorligini turli shakl, metod va vositalar

M.O.Ochilova, M.M. Abdullayeva TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI INNOVATSIYALASH MASALALARI.....	48
G'O.Boqiyev. IXTISOSLIK FANLARINI MUAMMOLI O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	51
D.Haydarova. PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA ASTRONOMIYADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI INNOVATSION O'QITISH.....	53
G.I. Sayfullayeva, S.Q. Qaxxorov. ASTRONOMIYA O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.....	56
N.X. Qobilova. FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI TALABALAR KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	58
Z.X. Qulboyev. FIZIKANING "TEBRANISHLAR VA TO'LQINLAR" BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLAR.....	61
N.A. Raximova. MAKTABGACHA TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MAZMUNI.....	65
M.X. Toshev. SHAXMATNI O'RGATISHDA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI.....	68
Sh.A. Sharapova. ТЕХНОЛОГИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.....	72
B.G. Nurullayev. BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OLIY TA'LIM PEDAGOGIKASINING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA.....	75
F.G.Nurullayev. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	78
3-ShO'BA. MILLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	81
N.E. Azimova, A. Ergasheva. O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI.....	81
A.T. Gulboyev. OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INOVATSION YO'LLARI.....	86
Sh.M.Farmonova. O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH.....	90
I.U. Ismatov, S.Q.Sadullayeva. TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	95
F.X.Ramazonova. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBGA E'TIQODNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.....	98
Z.M. Amirqulova. HIKOYALARDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINING IFODALANISHI.....	102